

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

BURANOV ANVAR KORABAYEVICH

**O‘ZBEK TILI QIPCHOQ LAHJASI LEKSIKASINING OLTOY TILIGA
MUNOSABATI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Buranov Anvar Korabayevich

О‘zbek tili qipchoq lahjasi leksikasining oltoy tiliga munosabati.....3

Буранов Анвар Корабаевич

Отношение лексики кыпчакского диалекта узбекского языка
к алтайскому языку.....23

Buranov Anvar Korabaevich

The relationship of the vocabulary of the Kypchak dialect of the Uzbek
language to the Altai language.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....50

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

BURANOV ANVAR KORABAYEVICH

**O‘ZBEK TILI QIPCHOQ LAHJASI LEKSIKASINING OLTOY TILIGA
MUNOSABATI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2022.4.PhD/Fil12817 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdushukurov Baxtiyor Bo‘ronovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Ashirboyev Samixon**
filologiya fanlari doktori, professor

O‘razboyev Abdulla Durdiboyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 21-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (260-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 6 » 06 kuni tarqatildi.

(2023-yil « 6 » 06 dagi 1- raqamli reestr bayonnomasi).



I.I.Adizova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., dotsent

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filol.f.d., dotsent

H.A.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash Toshkentdagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy jihatdan tadqiq qilish hamma davrlarda muhim va dolzarb vazifalaridan bo'lib kelgan. Chunki qiyosiy-tarixiy tilshunoslik (lingvistik komparativistika) – geneologik jihatdan qarindosh tillarni o'rganuvchi hamda ularning zamon va makondagi tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi soha sanaladi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik ayrim tillar o'rtasidagi genetik qarindoshlik, ya'ni ularning yagona bir manbadan kelib chiqqanligini aniqlash orqali ushbu tillarning tarixini qayta tiklash va yangi topilgan so'zlar hisobiga hozirgi tillar lug'atini boyitishda ko'maklashadi.

Dunyo tilshunosligida turkiy tillarni tarixiy-qiyosiy aspektda o'rganishga doir izlanishlar olib borilgan. Bu tadqiqotlarda turkiy tillar, jumladan, o'zbek va oltoy tili, ular shevalarining tarixiy taraqqiyoti, genezisiga doir ma'lumotlar keltirilgan, mazkur tillarning umumiy taraqqiyot bosqichlariga doir ilmiy xulosalar berilgan, o'ziga xos xususiyatlari ajratilgan. O'zbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tili leksikasini o'rganish, shu asosda davr tili xususiyatlarini umumlashtirish, taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, funksional-semantik, leksemalar o'rtasidagi paradigmatic munosabatlarni tahlil qilish, ularga xos jihatlarini ajratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Milliy tilimizning sofliğini saqlash, uning lug'at boyligini muntazam oshirib borish uchun o'zbek tilining o'z qatlamini tarixiylik nuqtai nazaridan keng ko'lamda tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Aynan shu yondashuv vositasida turli tillardan o'zlashgan terminlarning o'zbekcha muqobilini shakllantirish jarayoni ham osonlashadi. Bunda oltoy tilini tadqiqot obyekti sifatida o'rganish muhim o'rin tutadi. Chunki oltoy tiliga arab va fors tillardan so'zlar o'zlashmagan. Shu sababli, oltoy tilida qadimgi turkiy tilga oid asl so'zlar ko'p miqdorda saqlanib qolgan. Qolaversa, “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofliğini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy terminlarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi”¹. Shu ma'noda, oltoy tili va o'zbek tili qipchoq lahjasi leksikasining o'rganilishi har ikki tillardagi geneologik jihatdan mushtarak bo'lgan so'zlarni qidirib topish hamda bobo tildagi yoki o'lik qipchoq tilidagi izchil tovush o'zgarishlarining hozirgi tillardagi holatini aniqlash, ular asosida qadimgi turkiy tildagi leksemalarni qayta tiklash uchun zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019-yil 21-oktyabrdagi o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi gazetasi. 218 (7448)-son. – Toshkent, 2019. – 22-oktyabr.

“Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 1-noyabrda PQ-3365-son “Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 9-martdagi 133-son “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tili qipchoq lahjasi leksikasining oltoy tiliga munosabati bo‘yicha shu paytgacha alohida tadqiqot olib borilmagan. Biroq turkiy xalqlar tillarini tarixiy-qiyosiy o‘rganish bo‘yicha ko‘plab izlanishlar amalga oshirilgan. Bu sohada tadqiqotlarga Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asari bilan asos solgan. T. Gruinning ta‘kidlashicha Abu Hayyonning “Kitob ul-idrok li lison ul-atrok”, Jamoliddin Turkiyning “Kitob bulg‘ot ul-mushtoq fil-lug‘otit-turk val-qifchoq” asarlarida qiyosiy tahlillar kuzatiladi². Shuningdek, M.Kazembek, O.Byotlingk, A.Samoylovich, M.Chevalkov, V.Radlov, Ch.Valixanovlarning³ tadqiqotlari ham alohida e‘tiborga molik. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy o‘rganish yanada rivojlandi. G.Ramstedt, S.Malov, N.Baskakov, G.Axatov, E.Tenishev, Ye.Polivanov⁴ kabi olimlar bu sohada ilmiy izlanishlar olib borishgan. Oltoy tilini o‘rganish bo‘yicha N.Baskakov, L.Potapov, N.Direnkova, N.Yerlenbayeva,

² Груин Т.И. Документы на половецком языке (Судебные акты каменец-подольской армянской общины). – М.: Наука, 1967. – 429 с.

³ Казембек М.А. Грамматика турецко-татарского языка. – Казань: Университет, 1839. – 458 с.; Бётлингк О.Н. О языке якутов. Über die Sprache der Jakuten. – СПб: Типография Императорской Академии Наук, 1853. – 446 с.; Самойлович А. Н. Опыт краткой крымско-татарской грамматики. – Пг.: Тип. И. Бораганского, 1916. – 104 с.; Чевалков М.В. Памятное завещание: Автобиография миссионера Алтайской духовной миссии. – М: Тип. А.И.Снегиревой, 1894. – 94 с; Вербицкий В.И. Словарь алтайского и аладагского наречий тюркского языка. – Горно-Алтайск: Ак Чечек, 2005. – 504 с; Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Т.2. – СПб: 1905. – 1260 с; Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. – Алма-Ата: Наука АН Каз. ССР, 1961. – 782 с.

⁴ Рамстедт Г. Введение в алтайское языкознание. Морфология. – М.: ИЛ, 1957. – 255 с.; Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М.: АН СССР, 1951. – 451 с; Баскаков Н.А. Тюркские языки. – М.: Издательство восточной литературы, 1960. – 248 с.; Тенишев Э.Р. К изучению тюркских языков Крыма //Известия АН СССР. Серия литературы и языка. – Т.54. - № 1. – М., 1995. – С. 41-48; Поливанов, Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков. Происхождение и наименование узбеков. Первый выпуск. – Ташкент: Узгосиздат, 1926. – 32 с.

I.Kormushinlarning ishlari⁵ diqqatga sazovor. O‘zbek tili qipchoq lahjasi yuzasidan N.Baskakov, Ye.Polivanov, I.Zarubin, A.Borovkov, K.Yudaxin, V.Reshetov, G‘.Olimov, F.Abdullayev, A.Ishayev, O.Madrahimov, X.Doniyorov, B.Jo‘rayev, N.Rajabov, S.Rahimov, N.Shoimova, I.Darvishov tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan⁶.

Tadqiqotda o‘zbek tilshunosligida birinchi marta o‘zbek tili qipchoq lahjasi leksikasiga oltoy tilining munosabati o‘rganilmoqda, ushbu jihat mazkur dissertatsiyaning alohida ilmiy qiymatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining “Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili qipchoq lahjasi leksikasining oltoy tiliga munosabati orqali ular o‘rtasidagi genetik qarindoshlikka, umumiy va farqli jihatlariga e’tibor qaratish, shuningdek, ushbu tillarda saqlangan o‘z qatlamga oid so‘zlarni tiklash hisobiga hozirgi tillar, xususan, o‘zbek adabiy tili lug‘at fondini boyitishga hissa qo‘shishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tili leksikasining metodologik manbalarini tavsiflash orqali ularning nazariy jihatlarini asoslash;

o‘zbek tili qipchoq lahjasi hamda oltoy tilidagi leksik birliklarni tematik jihatdan tasniflash yordamida leksemalarning tarixiy taraqqiyotini yoritish;

o‘zbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tili leksikasining semantik xususiyatlarini o‘rganish, har ikkala til uchun xarakterli bo‘lgan so‘zlarni aniqlash hamda ularning tutgan o‘rniga baho berish;

o‘zbek tili qipchoq lahjasi hamda oltoy tili lug‘at fondida sodir bo‘lgan leksik-semantik jarayonlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diniy, madaniy omillar bilan bog‘liq holda ochib berish;

o‘zbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tili leksikasidagi o‘zlashma qatlamga doir

⁵ Баскаков Н.А. Алтайский язык. – М.: Наука, 1958. – 113 с.; Потапов Л.П. Этнический состав и происхождение алтайцев. Историко-этнографический очерк. – Л.: Наука, 1969. – 444 с.; Дыренкова Н.П. Грамматика ойротского языка. – М.: Наука, 1940. – 303 с.; Ерленбаева Н.В. Бытовая лексика алтайского языка. – Горно-Алтайск: РИО ГАГУ, 2008. – 183 с.; Кормушин И.В. Текстологические исследования по древнетюркским руническим памятникам. – М.: Наука, ГРВЛ, 1981. – С. 139-149.

⁶ Баскаков Н.А., Баскаков А.Н. Современные кыпчакские языки. – Нукус: изд. Каракалпакстан, 1987. – 104 с.; Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: ГИЗ УзССР, 1933. – 44 с.; Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. – Л.: Наука, 1925. – 25 с.; Боровков А.К. Очерки истории узбекского языка // Записки ИВ АН УзССР. – М., 1958. – С. 217-219.; Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1966. – №1. – Б. 3-14; Юдахин К.К. Ўзбек ва уйгур халқлари тилларидаги яқинлик // Ўзбек тили ва адабиёт масалалари. – 1958. – № 1. – Б. 31-35.; Юнусов Ғози Олим. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўқувўздавнашр, 1937. – 84 б; Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари таснифи масаласи. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. I. Фан, 1961. – 351 б.; Ишаев А. Манғит шеваининг баъзи бир фонетик хусусиятлари. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961. – 465 б.; Мадрахимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1973. – 117 б.; Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Наврўз, 2017. – 136 б.; Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – 465 б; Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 304 б.; Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. – Тошкент: Фан, 1985. – 117 б.; Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси: Фил.Ф. н... дис. – Т., 1999. – 174 б.; Дарвишов И. Жануби-ғарбий Наманган ареали қипчоқ тип шевалар шохобчасининг фонетик-фонологик хусусиятлари // ФарДУ илмий хабарлари. 2018. 1-сон. – Б. 69-72.

soʻzlar tahlilini amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati”, X.Doniyorovning “Qipchoq dialektlari leksikasi”, S.Rahimovning “Oʻzbek tili Surxondaryo shevalari”, B.Joʻrayevning “Yuqori Qashqadaryo shevalari”, N.Nazarovning “Laqaylar: dialektologiya va frazeologiya”, Oltoyshunoslik ITI tomonidan nashr etilgan “Altaysko-russkiy slovar/ Altay-orus sozlik”, N.Baskakovning “Orus-altay sozluk”, V.Verbitskiyning “Slovar altayskogo i aladagskogo narechiy tyurkskogo yazika” kabi tadqiqotlar va lugʻatlar asos qilib olindi.

Tadqiqotning predmetini oʻzbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tilidagi leksik birliklarni funksional-semantik, tarixiy-etimologik va leksik-semantik jihatdan tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda ilmiy-nazariy, tavsiflash, tasniflash, funksional-semantik, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-genetik, statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oʻzbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tilining oʻziga xos xarakterli jihatlari hamda ularning qadimgi turkiy til, oʻlik qipchoq tili bilan bogʻliqligi ochib berilgan;

oʻzbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tilida qoʻllanilgan soʻzlar oʻrtasidagi shakl hamda maʼno munosabatlari asoslangan;

tarixiy leksikologiyaning nazariy qoidalariga tayangan holda toponimlar, etnonimlar, teonimlar, qavm-qarindoshlik, maishiy leksikaga oid soʻzlarning qoʻllanish doirasi dalillangan;

oʻzbek tili qipchoq lahjasi hamda oltoy tili lugʻat boyligi, badiiy imkoniyatlari, ulardagi ekstralingvistik omillar, rus va moʻgʻul tillaridan kirgan leksemalar asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oʻzaro qarindosh tillar, yaʼni genetik jihatdan oʻzaro bogʻliq boʻlgan tillarni, jumladan ular oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganish dialektologiya, leksikologiya, lugʻatshunoslik, turkiy tillar tarixi, turkologiya fanlari uchun qimmatli ilmiy-nazariy maʼlumotlar berishi isbotlangan;

oʻzbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tili oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganish natijasida ular orasidagi umumiy oʻxshashliklar va farqlar koʻrsatib berilgan;

tarkibiga arab va fors tilidan soʻzlar integratsiyalashmagan oltoy tilida oʻz qatlam leksemalarning mazmuni nisbatan yaxshiroq saqlangani dalillangan;

tillarni tarixiy-qiyosiy oʻrganish natijasida aniqlangan koʻplab soʻzlardan oʻzbek tili izohli lugʻatining keyingi nashrlarida foydalanish mumkinligi va bu lugʻat boyligining yanada boyitilishiga xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻyilgan muammoning aniqligi, tillarning oʻzaro munosabatlarini oʻrganishda aniq ilmiy manbalarga va turkiy tilning barqaror mezonlariga tayanilgani, tahlil qilingan leksemalarning har tomonlama qiyosiy oʻrganilgani, jumladan qiyosiy usulda boshqa turkiy tillar bilan ham solishtirilgani, tadqiqot metodining toʻgʻri tanlanganligi, xulosalarning keng muhokamadan oʻtkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turkiy tillar, jumladan, o‘zbek, oltoy, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tatar, boshqird, qorachoy tillari leksikasini o‘rganish, shu sohaga oid tadqiqotlar olib borish hamda lug‘atlar tuzish uchun-ilmiy nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan oliy ta’lim tizimida o‘qitiladigan “O‘zbek tili tarixi”, “O‘zbek dialektologiyasi”, “O‘zbek mifologiyasi”, “Qadimgi turkiy til”, “Oltoyshunoslik”, “Folklorshunoslik” fanlaridan darslik va qo‘llanmalar yaratish, lug‘atlar tuzish, ixtisoslik fanlarini o‘qitish, amaliy va seminar mashg‘ulotlarini olib borishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tili qipchoq lahjasi leksikasining oltoy tiliga munosabati bo‘yicha olingan natijalar asosida:

o‘zbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tilidagi toponim, etnonim, teonimlar, qavm-qarindoshlikni ifodalovchi hamda maishiy leksikaga oid so‘zlarning geneologik tahlili borasidagi ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2019-2022-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10 raqamli “O‘zbek tilida neymning: me‘yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 14-yanvardagi 01/4-82-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tili ta’limiy korpusining funksional-uslubiy, funksional-kommunikativ jihatdan mukammallashishiga erishilgan;

o‘zbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tilining leksik-semantik tezaurusi, omonimiya, sinonimiya hamda antonimiya hodisalari, shuningdek, mo‘g‘ul va rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarning o‘rni, milliy nomlar zahirasi yaratish masalalariga bag‘ishlangan tahliliy materiallardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan PZ-20170927147 raqamli “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” mavzusidagi amaliy loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 14-yanvardagi 01/4-83-son ma’lumotnomasi). Natijada turkiy yozma manbalar tadqiqiga oid materiallar mazmunan yangi tahliliy ma’lumotlar bilan boyigan;

o‘zbek va oltoy xalqlarining tarixi, etnik tarkibi, tili, etnografiyasi, turmush tarzi va e’tiqodiga oid tahlil hamda munosabatlar bilan bog‘liq ilmiy materiallardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Etno” va “Aslida qanday” ko‘rsatuvlari dasturlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 29-avgustdagi 486-23-4430-son ma’lumotnomasi). Natijada O‘zMTRKda yangi ko‘rsatuvlarni tashkil qilish va mavjud ko‘rsatuvlarning mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy

natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, 3 tasi respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 158 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O'zbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tili leksikologiyasining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, uning birinchi paragrafidagi **“O'zbek tili qipchoq lahjasining shakllanishi va o'rganilishi”** bayon qilingan.

O'zbek tili qipchoq lahjasi geografik jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan viloyatlari hamda qo'shni Tojikistonning Qo'rg'ontepa, Turkmanistonning Toshovuz viloyatlari, janubiy Qozog'iston va shimoliy Afg'oniston hududlarida keng tarqalgan⁷. Qipchoq lahjasining kelib chiqishi hozirda o'lik tillar qatoriga kiritilgan qipchoq tili bilan uzviy bog'liq. Qipchoq tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning dastlab Oltoy va Irtish daryosining yuqori hududlarida shakllanganligi taxmin qilinadi⁸. So'ngra esa Dashti Qipchoq va Qora dengiz oralig'idagi cho'llarda yashagan xalqlarning ushbu tilda so'zlashgani aniqlangan. Keyinchalik qipchoq tili asosida qirim tatar, qarayim, qirimchaq, qorachoy-balqar, qumiq, no'g'oy, qozoq, qoraqalpoq, tatar, boshqird va sibir tatarlari tillari shakllangan⁹.

“Sравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Региональные реконструкции” nomli kitobda qipchoq tillari shakllanishi xronologiyasining sxematik tasnifi keltirilgan:

I. Ilk qipchoq bobo tilining shakllanish davri (miloddan avvalgi X asr – milodiy II asr). Bu davrda bobo tilning asosiy lug'at tarkibi saqlangan.

II. O'rta qipchoq tili davri (II–VII asrlar)da turli areallarda (sharqiy, shimoliy, markaziy va g'arbiy) yashagan qipchoqlar tillarida farqlanuvchi o'ziga xos xususiyatlar shakllangan.

⁷ Шерматов А., Шаабдурахманов Ш. Атлас узбекских народных говоров. Тюркское языкознание: материалы III Всесоюзной конференции. – Ташкент, 1985. – С. 498.

⁸ Кляшторный С.Г., Савинов Д.Г. Степные империи древней Евразии. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2005. – С. 27.

⁹ Баскаков Н.А. К вопросу о классификации тюркских языков // Известия Академии наук СССР. Отделение литературы и языка. – М., 1952. – Т. XI, вып. 2. – С. 121-134.

III. So‘nggi qipchoq tili davri (VII–XII asrlar)da til guruhlariga bo‘linish jarayonlari kuchaygan.

Qipchoq tili rivojlanish bosqichining keyingi davri (XIII–XVIII asrlar)da areal guruhlar va alohida qipchoq tillarining o‘ziga xos xususiyatlari shakllanishi ro‘y bergan. XIX–XX asrlarga kelib bir-biridan sezilarli darajada farq qiladigan hozirgi qipchoq tillari yuzaga kelgan.

Qipchoq tili areal xususiyatlarining paydo bo‘lishi hozirgi qipchoq tillarining to‘rtta guruhga ajralishiga zamin hozirladi:

- a) g‘arbiy: qaraim, qorachay-balqar, qirimtatar, qumiq, urum tillari;
- b) shimoliy: boshqird, barabin tatarlari tili, tatar tili;
- v) markaziy: Astraxan no‘g‘oy qarag‘ashlari tili, alabug‘at tatarlar tili, qozoq tili, qoraqalpoq tili, o‘zbek tilining qipchoq lahjasi, no‘g‘oy tili, ovul tatarlari (astraxan no‘g‘oylari) tili;
- g) sharqiy: oltoy va qirg‘iz tili.

Ular orasida barabin tilini shimoliy va markaziy, qumiq tilini markaziy va g‘arbiy tillarning o‘tish tili deb atash mumkin¹⁰.

Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek tilining qipchoq lahjasi areal jihatdan markaziy, oltoy tili esa sharqiy guruhga mansub.

N.A.Baskakovning tasnifiga ko‘ra, qipchoq tillari guruhi o‘z o‘rnida yana bir nechta kichik guruhlariga bo‘linadi:

1. Qipchoq-bulg‘or guruhi.
2. Qipchoq-o‘g‘uz guruhi.
3. Qipchoq-no‘g‘oy guruhi.

Unga ko‘ra, o‘zbek tilining qipchoq lahjasi va oltoy tili qipchoq-no‘g‘oy guruhiga kiritilgan¹¹.

O‘zbek tilining qipchoq lahjasi bo‘yicha shu paytgacha Ye.Polivanov, I.Zarubin, A.Borovkov, K.Yudaxin, V.Reshetov, G‘.Olimov, N.Baskakov, F.Abdullayev, A.Ishayev, O.Madrahimov, X.Doniyorov, A.Nurmonov, M.Mirtojiyev, B.Jo‘rayev, N.Rajabov, S.Rahimov tadqiqot olib borishgan¹².

¹⁰ Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Региональные реконструкции. – М.: Наука, 2002. – С. 216-217.

¹¹ Баскаков Н.А. К вопросу о классификации тюркских языков // Известия АН СССР. Отделение литературы и языка. – Т. XI. Вып. 2. – М., 1952. – С. 121-134.

¹² Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. (К современной стадии узбекского языкового строительства). – Ташкент: ГИЗ УзССР, 1933. – 44 с.; Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. – Ленинград: Наука, 1925. – 25 с.; Боровков А.К. Очерки истории узбекского языка//Записки ИВ АН УзССР. – М., 1958. – С. 217-219.; Решетов В. В. Ўзбек шевалярининг классификацияси//Ўзбек тили ва адабиёти. – 1966. – №1. – Б. 3-14; Юдахин К.К. Ўзбек ва уйғур халқлари тилларидаги яқинлик//Ўзбек тили ва адабиёт масалалари. – 1958. –№ 1. – Б. 31-35.; Юнусов Ғози Олим. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўқувўздавнашр, 1937. – 84 б; Баскаков Н.А., Баскаков А.Н. Современные кыпчакские языки. – Нукус: Каракалпакстан, 1987. – 104 с.; Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари таснифи масаласи. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961. – 351 б.; Ишаев А. Манғит шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961. – 465 б.; Мадрохимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1973. – 117-б.; Данияров Х. Опыт изучения джекающих (кипчакских) диалектов в сравнении с узбекским литературным языком (на материалах Самаркандской и Джизакской областей). – Ташкент: Фан, 1975. – 240 с.; Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Наврўз, 2017. – 136 б.; Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1990. – 45 б.; Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 423 б.; Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – 465 б;

Qipchoq lahjasida soʻzlashuvchi xalqlar Oʻzbekiston hududiga qadimgi davrlarda kelib joylashgan va oʻtroq tarzda turmush kechirishgan. X.Doniyorov qipchoq oʻzbeklarining Oʻzbekiston hududiga kirib kelishini uch davrga boʻlib koʻrsatadi:

Birinchi davr – eng qadimgi davrlardan tortib - XIII asrgacha boʻlgan davr.

Ikkinchi davr – XIII asrning 20-yillaridan XIV asrning boshlarigacha boʻlgan davr.

Uchinchi davr – XIV asrdan boshlanadi. Maʼlumki, bu davrda qipchoq-oʻzbeklar yoppasiga Oʻrta Osiyoga kelib joylashdi va ana shu davrdan boshlab, ular Oʻrta Osiyoda turgʻun holda yashayotgan oʻzbeklar bilan har tomonlama aralashuvga oʻta boshlaganlar¹³.

Oʻzbek tili qipchoq shevalarining tahlili shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilining qipchoq lahjasi bugunga kelib toʻliq shakllangan va boshqa qipchoq tillari hamda shevalaridan farqlanuvchi xususiyatlar kasb etgan. Jumladan, oʻzbeklar bilan yagona lingvogeografik hududlarda yashab kelgan qozoq, qirgʻiz va qoraqalpoq vakillari tillaridan ham farqlanadi. Shu bilan birga, uzoqroq hududlardagi ayrim qipchoq tillari bilan umumiyliklarga ham ega.

Birinchi bobning **“Oltoy tili leksikasining tadqiq qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida oltoy tili tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilgan.

Oltoy adabiy tili Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi Oltoy respublikasining tub aholisi – oltoy xalqining tili hisoblanadi. N. Baskakovning tasnifiga koʻra, oltoy tili turkiy tillarning qipchoq-qirgʻiz guruhiga kiradi¹⁴.

Oltoylar islom dinini qabul qilmagan sanoqli turkiy xalqlardan biridir. Shu sababli bu tilga arab va fors tillardan soʻzlar deyarli oʻzlashmagan. Salomlashish va tanishish soʻzlarida ham sof turkiy lafz saqlangan va ular oʻzaro *“yaxshi (yaxshimisiz)?”* yoki *“ezen (esonmisiz)?”* deb salomlashishadi. Oltoy tilining oʻzga tillardan leksik-semantik jihatdan farqlanishi, oltoy xalqining uzoq yillar moʻgʻul va jungʻor xonliklari qoʻl ostida, soʻnggi asrda esa rus tili va provaslav cherkovi taʼsirida qolganligi bilan bogʻliq.

Hozirgi kunda bu tilda taxminan 68-70 ming kishi soʻzlashadi va oltoy tili janubiy hamda shimoliy dialektlarga boʻlinadi. Undagi teleut va toʻlangit shevasi janubiy, toʻbalar, qumandin va chelkan shevasi esa shimoliy dialektni tashkil etadi.

Oltoylar XIII asrga qadar qadimgi turk runik yozuvidan foydalanib kelgan. Ammo Chingizxon bosqinidan keyin bu yozuvlar yoʻqola boshlagan va keyingi besh asr davomida oltoy tili moʻgʻul tilining taʼsirida qolib ketgan.

Oltoy tilining tadqiq qilinishi XIX asrda boshlangan, oltoy adabiy tili ham aynan shu davrda shakllana boshlagan. Oltoy tilining alifbosi kirill alifbosiga н, ж, ө, ү harflari qoʻshilgan holda teleut shevasi bazasida 1840-yilda shakllantirilgan. 1869-yilda Qozon shahrida ilk marotaba oltoy tili grammatikasi, 1884-yilda esa imlo

Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 304 б.; Рахимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. – Тошкент: Фан, 1985. – 117 б.

¹³ Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Наврўз, 2017. – Б. 13-15.

¹⁴ Баскаков Н.А. Алтайский язык. – М.: Наука, 1958. – С. 5.

lug'ati e'lon qilingan. Oltoy yozuvi 1928-yilda ma'lum muddat lotin alifbosiga o'tkazilgan, 1938-yilda yana kirill alifbosiga qaytarilgan¹⁵.

Oltoy tilining XX asrdagi rivojida Z.Kazagacheva, N.Direnkova, V.Radlov, N.Baskakov, S.Surazaqov, S.Katash, N.Korgunbayeva, A.Tazranovalar, V.Rassadin, T.Sadalova kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi¹⁶. Shuningdek, Oltoyshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining tadqiqotlari ham juda katta ahamiyatga ega.

Boshqa tadqiqotlardan farqli o'laroq, N.Baskakovning izlanishlarida oltoy tilining til qoidalari va me'yorlari to'la shakllangan davr qamrab olingani uchun ko'proq uning xulosalariga tayanildi. Olimning "Oltoy tili" asari tizimli va keng qamrovli bo'lib, unda oltoy tili haqida umumiy ma'lumotlar berilishi bilan birga, eskirgan oyrot varianti bilan farqlari ham ko'rsatib o'tilgan.

Bugungi kunda oltoy tili ikki guruhga ajratilgan. Janubiy oltoy dialektida altay kiji, teleut, to'langit, to'balar kabi urug'larlardan iborat, taxminan 60 ming kishi mulqot qiladi. Shimoliy dialektida to'balar, qumandin, chelkan urug'lari vakillaridan iborat 10 ming kishi so'zlashadi.

"O'zbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tili leksikasining semantik tahlili" nomli ikkinchi bobda oltoy tili va o'zbek tili qipchoq lahjasida qo'llaniladigan toponim, etnonim, teonim, qavm-qarindoshlik terminlari va maishiy leksika genealogik jihatdan tahlil qilingan.

Oltoy toponimlari islom dinini qabul qilgan turkiy xalqlarning toponimlaridan muayyan xususiyatlari bilan farqlanadi, chunki bu tilga arabcha va forsha so'zlar deyarli o'zlashmagan. Toponimlar yasalishida *-obod*, *-iston*, *-zor*, *-kat*, *-kent*, *-xona* kabi topoformantlar ishtirok etmaydi. Shu jihat ikki tilning o'zaro munosabatlarini tahlil qilish orqali turkiy topoformantlarni aniqlash imkonini beradi. Misol uchun, *tash*, *say*, *su*, *tav* kabi topoformantli joy nomlari keng qo'llanilishi ularning turkiy joy nomlari ekanidan dalolat beradi.

Oltoy toponimlari orasida o'z qatlam leksemalarning ko'pligi va ularning ma'nosining saqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina Qatun daryosining irmoqlar orasida *Chuy*, *Qorasu*, *Ko'kcha*, *Alg'ayir*, *Mayma*, *Souzg'a*, *Qamishla*, *Ustto'ba*, *Shashqular*, *Quyum*, *Chemal*, *Tutkesken*, *Ayuli*, *Aylug'ash*, *Sarali*, *Aqqam*, *Ko'ragan*, *Tungur* kabi turkiy nomlar saqlanib qolgan. Daryo bo'yida joylashgan Ust-

¹⁵ Тадыкин. В.Н. Орфография алтайского языка // Орфографии тюркских литературных языков СССР. – М.: Наука, 1973. – С. 63-76

¹⁶ Казагачева З.С. Дореволюционная письменность и зачатки литературы у алтайцев – Горно-Алтайск, 1972. – С. 9-19.; Дыренкова Н.П. Тюрки Саяно-Алтая. Статьи и этнографические материалы. – СПб.: МАЭ РАН, 2012. – 408 с.; Радлов В.В. Образцы народной литературы тюркских племен, живущих в Южной Сибири и Джунгарской степи. 2-е изд. – Горно-Алтайск: Ак Чечек, 2006. – 471 с.; Баскаков Н.А. Алтайский язык. – М.: Наука, 1958. – 113 с.; Суразаков, С. С. Алтай литература – Горно-Алтайск: Чаптыган, 1995. - 204 с.; Каташ С.С. Этнопедагогика в алтайской афористической поэзии // Педагог. 1996. – № 1. – С. 103-109.; Коргунбаева Н.И. Алтайско-русский – русско-алтайский словарь. – Горно-Алтайск: Алтайское книжное издательство, 1991. – 182 с.; Алтайский язык в системе тюркских языков: учебное пособие для студентов по программе магистратуры 032700.68–Филология. Языки народов России / Сост.: В.А.Боргояков, С.Б.Сарбашева, А.Р.Тазранова. – Горно-Алтайск: РИО ГАГУ, 2013. – С. 84.; Рассадин В.И. Очерки по истории сложения тюрко-монгольский языковой общности. – Санкт- Петербург: «Нестор-История», 2009. – С. 140; Садалова Т.М. Категория художественного пространства в алтайских сказках.https://cyberleninka.ru/article/n/kategoriya_hudozhestvennogo-prostranstva-v-altayskih-skazkah

Koksa, Uymon, Aq-Qoba, Qatanda, Tyungur, Chemal, Sarag'ash, Qatun, Mayma, Qarasuq, Chuya kabi aholi yashash punktlari ham turkiyda nomlangan, ularning nomlanish tarixi va ma'nolari saqlangan.

Altay toponimining etimologiyasi shu paytgacha jiddiy bahslarga sabab bo'lib kelgan. Manbalarda *oltoy* so'zi hozirgi kunda antroponim(ism), lingvonim(*oltoy* til oilasi), oronim(*oltoy* tog'i), etnonim(*oltoylar*), teonim(*Altay* quday) sifatida ham qo'llaniladi. O.T.Molchanovning "Tog'li Oltoyning toponomik lug'ati"da A.Gumboldt, V.V.Bartold, V.V.Radlov, G.K.Konkashpayevlarning fikrlari keltirilgan. Ular orasida V.V.Radlovning bu leksema "*Al+tay*", *al*-"*oltin*" va *tay*-"*tog*" so'zlari birikmasidan hosil bo'lganligi haqidagi farazi ko'proq e'tibor qozongan. G.K.Konkashpayev Oltoy azaldan turkiy xalqlar yeri bo'lganligi, turkiylar esa o'z joylarini boshqa tilda nomlaydigan xalq emasligini ta'kidlaydi va *tay* bo'g'ini nisbiy sifat yasovchi qo'shimcha ekanini e'tirof etib, *Altay Altan+tay*, ya'ni *oltinli*, *oltinga boy* ma'nosini bildirishini aytadi. O.T.Molchanova ham o'z qiyosiy tahlillariga muvofiq G.K.Konkashpayev versiyasini ishonchli, deb topadi¹⁷. O'zbek tilining qipchoq lahjasida, xususan Surxondaryo va Qashqadaryo etnik o'zbeklarida Oltoy *olti* va oy so'zlari birikmasidan hosil bo'lganligi haqidagi yana bir versiya bor. "*Oltoy olti oyi jo'lda*" degan ibora, shuningdek xalq og'zaki ijodiyotida "*Alti ayliq jo'lim-ov, adag'i jo'q cho'lim-ov, borib-qaytar jaylovim, aynalayin Altayim, bir aynalib qaytayin*" kabi termalar saqlanganiga e'tibor qaratilgan. Bunda "*borib-qaytar jaylov*" chorvadorlarning yillik siklda chorvalarni o'tlatish hududlarini anglatadi. Bundan ko'rinadiki, Oltoy – *olti* + *oy* so'zlari birikmasidan yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Biy, Xotin (Qatun), Mog'ol (Mo'g'ol) kabi toponimlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili qipchoq lahjasida qo'lanadigan ayni so'zlar va boshqa ko'plab toponimlar oltoyda ham uchraydi va ular bir xil talaffuz qilinadi. Shuningdek, *Arqavul, Jaylov, Jayilma, Jalang, Jalbaq, Tau, To'g'ay, To'ba* kabi toponimlarning talaffuzi deyarli farq qilmaydi.

Etnonimlar orasidagi umumiylik va farqli xususiyatlar *oltoy, telyos(teles), quman, teleut, to'langit, yuz, qarg'a, nayman, merkit* kabi etnonimlar asosida tahlil qilindi.

Telyos(tele) etnonimi qadimgi turk davrida shakllangan bo'lib, turkiy *tele* urug'larining avlodi sanaladi¹⁸. Surxondaryoda qo'ng'irotlarning qo'shtamg'ali katta urug'i tarkibiga kiruvchi *to'langit* va *tilovmat* urug'lari qayd etilgan¹⁹. *Tele* urug'larining vakillari hozirgi kunda oltoy, shor, tuva, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va o'zbek etnoslari orasida uchraydi. L.Potapov qadimgi *tele* urug'larini etnogenetik jihatdan *teleut, to'langit* va *teleslar* bilan bog'lagan²⁰. Boshqirdlar orasida bu urug' *telev, telyau, tele, teli* shaklida uchraydi.²¹ Qoraqalpoqlarda esa faqat *tileu* urug'i bor. Bundan ko'rinadiki, *tilovmat* urug'i avval *tilav* shaklida bo'lgan.

¹⁷ Молчанова О.Т. Топонимический словарь Горного Алтая. – Горно-Алтайск: Горно-Алтайское отделение Алтайского книжного издательства, 1979. – С. 131.

¹⁸ Гумилев Л. Ритмы Евразии: эпохи и цивилизации. – М.: Кристалл, 2003. – С. 125.

¹⁹ Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р., Махмадиёрова Н.С. Сурхондарё – этнографик макон. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – С. 218

²⁰ Потапов Л.П. Этноним теле и алтайцы. Тюркологический сборник. – М.: Наука. 1966. – С. 233.

²¹ Кузеев Р.Г. Происхождение башкирского народа. – М.: Наука, 1974. – С. 295.

Dissertatsiyada *oltoy*, *quman* etnoslarining ham tahlili berilgan. Shuningdek, *qipchoq*, *almat*, *nayman*, *chapti*, *merkit*, *xan*, *sart*, *qirg'iz*, *mo'g'ol*, *yuz*, *saqal*, *tilav*, *to'langit*, *to'ra*, *qarg'a*, *kal*, *oyrot*, *ochin* kabi o'zbek urug'larining "*altay syook*"lari orasida mavjudligiga ham e'tibor qaratilgan.

Chuya yuzlari. Oltoy va o'zbek etnonimlarini chuya yuzlari tushunchasi ham birlashtiradi. Ma'lumki, Navoiy viloyati, Nurota tumanida Chuya qishlog'i bor. Bu yerda yuz urug'lari yashaydi. Oltoy Respublikasining Chuya traktidagi ayrim qishloqlarda ham yuz urug'lari yashaydi. Bu o'xshashlik o'z-o'zidan nomadik hayot kechiruvchi turkiy xalqlarda etnoslar bilan birga toponimlarning ham ko'chishi hodisasini bildiradi

O'zbek tilining qipchoq lahjasi va oltoy tili uchun umumiy sanalgan teonimlarning asosiy qismini tangrichilik dini bilan bog'liq o'z qatlam leksemalar tashkil qiladi. Ammo, turkiylar monoteistik dinlarni qabul qilishi bilan bu teonimlar unutila boshlagan yoki mazmuni o'zgarib borgan. Oltoylar tangrichilik dinini saqlab qolganlari uchun to nasroniylikni qabul qilgunga qadar til tarkibiga boshqa teonimlar o'zlashmagan, so'zlarning ma'nosi ham o'zgarmagan. O'zbek tilining qipchoq lahjasiga esa islom dini bilan bog'liq teonimlar o'zlashishi oqibatida o'z qatlam so'zlar asta-sekin muomaladan chiqib boshlagan. Oltoylarda saqlangan teonimlarni tadqiq qilish o'z qatlam so'zlarning ma'nosini qayta tiklash imkonini beradi. Misol uchun, oltoylar dunyoqarashida "ruh" tushunchasi juda murakkab tuzilmaga ega. L.Potapovning ta'kidlashicha, missioner-tilshunoslar o'z ta'limotlarini mahalliy aholiga o'rgatish uchun *ruh* so'zini tarjima qilishga ehtiyoj sezishgan va uni o'rganishda juda chigal muammoga duch kelishgan. Ular dastlab ruhni ifodalash uchun *tin* leksemasidan foydalanmoqchi bo'lishgan. Ammo turkiy tilda *tin*, "nafas olish" ma'nosini bildirganligi uchun undan foydalana olishmagan. Chunki nafas olish uchun tana bo'lishi kerak edi. Inchunun, nasroniylikning uch asosiy muqaddas otlardan biri "muqaddas ruh"da esa tana bo'lmaydi. Shundan so'ng ular ruhni anglatuvchi boshqa leksemalarni topishga urinishgan. Oqibatda ruh ma'nosida qo'llanuvchi *qut*, *tin*, *cin*, *sune*, *sur*, *sus*, *jula*, *uzut* kabi o'nlab leksemalarni keng tadqiq qilishga majbur bo'lishgan. Bu so'zlar qipchoq lahjasida *qut*, *tin*, *cin*, *sung*, *sur*, *sus*, *julun*, *uzulk* shaklida saqlangan.

Oltoy tilidagi *qut*, *tin*, *cin*, *sune*, *sur*, *sus*, *jula*, *uzut* kabi leksemalar o'zbek tili qipchoq lahjasiga munosabati shuni ko'rsatadiki, inson ruhi faqat tanadagi tiriklikni ta'minlovchi hilqat emas, balki insonning hayotdagi vazifasi, ruhiyati, hissiyotlarining hamma jihatlarini kompleks anglash va boshqarish imkoniyatini beruvchi tushunchadir. Yuqorida keltirilgan manbalarga tayanib xulosa qilinsa, insonning yuzi, qiyofasi, quvvati, sog'ligi, omadi asosan uning ruhi bilan bog'liqligi aniq bo'ladi. *Tin* insonning tirikligini, *cin* sog'ligi va qudratini, *sune* ko'rish, eshitish, ta'm bilish va vaziyatni chamalash qobiliyatini, *sur* shiddatini, *sus* haybatini, *jula* quvvatini ifodalaydi. *Qut* esa ulardan farqli o'laroq, inson ruhiyatidagi muvozanatni, baraka, baxt va saodatni, shuningdek, oliy nerv faoliyatini, ya'ni fikrlash qobiliyatini ta'minlovchi hilqat sanaladi.

O'zbek tilining qipchoq lahjasida ishlatiladigan qavm-qarindoshlikni ifodalovchi terminlar boshqa qipchoq xalqlari, jumladan, oltoy tili leksemalari bilan o'xshash. Ammo *amaki*, *amma*, *xola*, *xolavachcha* kabi o'zlashmalar kirib kelishi bilan o'z

qatlam soʻzlar unitilgan. Shu oʻrinda, oltoy tilida saqlangan oʻz qatlam soʻzlar orqali ayrim terminlarning maʼnosini tiklash mumkin.

N.Tadinaning tasnifiga koʻra turkiylarning qavm qarindoshligi uch yoʻnalishda shakllanadi:

1. Ota urugʻi – qarindash (syook yoki ogʻayni).
2. Ona urugʻi – tagʻi (baltir yoki togʻayni)
3. Nikoh orqali bogʻlangan urugʻ – qaindash(qayn urugʻ).

Syook(ota urugʻi), tagʻi(togʻa urugʻi), qaindash(qayn urugʻ), bōlō(boʻla), bala va baqra(barqa) kabi leksemalar tahlili ularning arxaik maʼnolarini ochishga yordam beradi. Misol uchun, ona tomondan qarindoshlarning nomlarini tahlil qilish arab va fors tillaridan oʻzlashgan terminlarning, xususan *xola* soʻzining arxaik variantini aniqlab beradi. Quyidagi jadvalda ona urugʻiga tegishli qarindoshlarning nomlari keltirilgan:

Qarin- doshlik Til	Ona	Bobo(onaning otasi)	Buvi(onaning onasi)	Togʻa(onaning akasi)	Togʻa(onaning ukasi)	Xola (onaning opasi)	Xola(onaning singlisi)	Togʻaning xotini	Xolaning eri
Oltoy tilida	<i>ena</i>	<i>tagʻayada</i>	<i>tagʻayna</i>	<i>tagʻay</i>	<i>tagʻaini</i>	<i>tagʻay eje</i>	<i>taasiyni</i>	<i>tayjenge</i>	<i>tayjezne</i>
Qipchoq lahjasida	<i>ena</i>	<i>bova</i>	<i>momo</i>	<i>togʻa</i>	<i>togʻa</i>	<i>xala</i>	<i>xala</i>	<i>checha</i>	<i>jezza</i>

Oʻzbek tilining qipchoq lahjasida “bala-baqra” juft soʻzi faol ishlatiladi. Ammo undagi “baqra” soʻzining maʼnosi unutilgan. Oltoy tilida oʻgʻil farzandning bolalari-nevaralar *bala*, qiz farzandining bolalari esa *baqra* yoki *barqa* deyiladi. Umuman, nevaralarga nisbatan “bala-baqra” deb muomala qilinadi. Baqra shakldosh soʻz sifatida, jiyanga togʻasi tomonidan berilishi shart boʻlgan sovgʻani ham anglatadi. Togʻalar jiyanlariga baqra uchun ot yoki shunga oʻxshash arzirli sovgʻalar berishgan. Agar jiyanlar koʻp boʻlsa ularning eng kattasi va eng kichigiga baqra sovgʻasi berilgan²². Ayni odatlar boshqa qipchoq xalqlari orasida ham tarqalgan boʻlib, xususan, oʻzbeklarda jiyanlarning toʻyiga ot yoki xoʻkiz sovgʻa qilish koʻrinishida saqlanib qolgan.

Bōlō(boʻla). Oʻzbek tilida opa-singillarning farzandlari bir-biriga nisbatan xolavachcha sanaladi. *Xola* arab tilidan *vachcha(bachcha)* esa fors tilidan oʻzlashgan. Oltoy tilida va qipchoq lahjalarida qoʻllanadigan “*bōlō*”(boʻla) sof turkiy soʻz boʻlib, opa-singillar bolalarining suyagi boʻlak ekanini bildiradi. N.A.Tadina “*bōlō*”lar orasida “alishpas”ga rioya qilinishi, yaʼni toʻrt avlod almashguncha boʻlalar nikohlanmasligini taʼkidlagan²³. *Boʻla* termini garchi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da berilgan²⁴ va manbalarda qoʻllanilsada, muomalada koʻproq *xolavachcha*

²² Тадина Н.А. Алгебра родства. Родство. Системы родства. Системы терминов родства. – СПб., 2005. – Вып. 9. – С. 255-265.

²³ Тадина Н.А. Алгебра родства. Родство. Системы родства. Системы терминов родства. – СПб., 2005. – Вып. 9. – С. 224.

²⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. II жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. – Б. 407.

ishlatiladi. *Bo‘la* o‘zbek tilining qipchoq shevalaridagina faol qo‘llanadi. Misol uchun, Surxondaryo viloyatida *xolavachcha* termini ishlatilmaydi.

Maishiy leksikadagi o‘xshash va farqli jihatlar o‘zbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tilidagi kiyimlar va taqinchoqlar, idish-tovoq, oziq-ovqat va ot abzallarini ifodalovchi so‘zlarning tahlilida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, *kiy* o‘zagidan yasaluvchi bir nechta so‘zlarni solishtirish ulardagi umumiylikni ko‘rsatadi:

O‘zbek tilida	kiyim	gazlama(mato)	sarpo	kiymoq	ichki kiyim
Oltoy tilida	kiyim	kiyit	kiyittik	kiyu	ich kiyim
Qipchoq lahjasida	kiyim	kiyit	kiyitlik	kiyuv	ich kiyim

O‘zbek tilining qipchoq lahjasi va oltoy tilidagi o‘xshashliklar, ayniqsa, ot abzallari nomlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Misol uchun, *uygen(yugan)*, *tiskin*, *noqta*, *chilbir*, *suluq*, *saldirg‘a*, *qondurg‘a*, *quushqan*, *eer*, *uzengi*, *uzangngi*, *qopon*, *toqim*, *eer qaashi*, *tamaji*, *eerdin jabindizi*, *tarilg‘a*, *eerdin talbag‘i*, *iyar talbaq*, *qanji(qo‘nji)* kabi so‘zlarning talaffuzida faqat fonetik farqlar ko‘zga tashlanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**O‘zbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tili lug‘at tarkibining genealogik va leksik-semantik xususiyatlari**” deb nomlanib, unda o‘z qatlam so‘zlarning asrlar davomida saqlanishi va o‘zgarishiga e‘tibor qaratilgan. Inchunun, har ikki til ham qadimgi qipchoq tili zaminida shakllangan bo‘lsa-da, bugungi kunga kelib ular orasida juda katta semantik farqlar ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, o‘zbek tiliga fors va arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar hisobiga bu farqlar yanada ortadi. Biroq har ikki tilning o‘z qatlam leksemalari unchalik katta o‘zgarishlarga uchramagan, faqat o‘zbek tili qipchoq lahjasidagi ko‘plab so‘zlarning ma‘nosi unitilgan.

Bobda o‘zbek tili qipchoq lahjasiga mo‘g‘ul va rus tillaridan o‘zlashgan so‘zlar, polisemiya, omonim, sinonim va antonim so‘zlarning tahlili berilgan. Tahlillarda leksemalarning geneologiyasiga e‘tibor qaratilgan.

Mo‘g‘ul tilidan o‘zlashgan *mo‘g‘ol*, *nayman*, *qoravul*, *navkar*, *ovsin*, *mergan*, *qurultay*, *baatir*, *mal*, *aymaq* kabi so‘zlar tahlili orqali o‘zbek tilining qipchoq lahjasidagi ayni so‘zlarning fonetik, semantik xususiyatlari ochib berilgan. *Mo‘g‘ol* va *nayman* so‘zlari o‘zbek tilining qipchoq lahjasida ham, oltoy tilida ham ayni shaklda, shuningdek *mo‘g‘ul* va *mayman* shaklida ham qo‘laniladi. *Ovsin* termini esa o‘zbek tilining qipchoq lahjasida *abisin*, oltoy tilida *abizin* shaklida talaffuz qilinadi.

Mal so‘zi o‘zbek tilining qipchoq lahjasida chorvaga nisbatan ikki shaklda qo‘llaniladi: 1) *qora mol* (sigir), 2) *ushaq mol* (qo‘y, echki). Shuningdek, *mal* boylik va mulk ma‘nosiga ham ega. Bu so‘z mo‘g‘ul tilidan o‘zlashgan va “*hayvon*, *uy hayvoni*”, “*mulk*” ma‘nolarida ishlatiladi. Uy hayvonlari *adguus mal* – yirik hayvonlar (ot va sigirlar) hamda *bog‘ mal* – kichik hayvonlar (qo‘y va echki)ga bo‘linadi²⁵. Oltoy tilida barcha hayvonlar *mal* deyiladi. Ammo “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *mol* arab tilidan o‘zlashganligi qayd etilgan²⁶. N.Nazarov esa *mal*ni forsiy

²⁵ Кручкин Ю. Большой современный русско-монгольский, монгольско-русский словарь. – М.: Восток-Запад, 2006. – С. 203.

²⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. II жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. – Б. 610.

soʻz, deb keltirgan²⁷. Bu notoʻgʻri, chunki bu soʻz arab tili oʻzlashmagan buryat, oltoy, xakas, yakut tillarida ham chorva mollari va mulk ayni nom bilan ataladi²⁸. Qolaversa, aynan moʻgʻullarda kishilarning boyligi uning chorvasiga qarab belgilangan.

Oʻzbek tili qipchoq lahjasi va oltoy tiliga rus tilidan soʻzlarning oʻzlashuvi asosan ikki davga boʻlinadi:

1. Rus mustamlakasi davri (XVIII-XX asrlar);
2. Shoʻrolar davri (XX asr).

Birinchi davrda har ikkala tilda ruscha soʻzlarni buzib talaffuz qilish koʻzga tashlanadi: *oris (rus)*, *Iskobilip (Skobelev)*, *Chebolkop (Chevalkov)*, *Moskop*, *Moskpa (Moskva)*.

Dissertatsiyada *rus*, *Moskva*, *kartoshka* kabi soʻzlar tavsiflangan. *Militsiya*, *stol*, *avtobus*, *sovxoz*, *truba*, *bank*, *tank*, *stolb*, *fartuk*, *otchyot*, *zakonoved* kabi oʻzlashgan soʻzlarning fonetik xususiyatlari ochib berilgan. Rus leksemasi birinchi davrda oʻzlashgan va qipchoq lahjalarida *oʻris* shaklida talaffuz qilingan. Oltoy tilida *rus* leksemasi orus shaklida yozilsa-da, qipchoq lahjasiga yaqin talaffuz qilinadi. Bunday talaffuz qilish qadimgi turkiy tilda *r* harfi bilan boshlanuvchi soʻzlarning mavjud boʻlmaganligi bilan bogʻliq. Oltoy tilidagi oʻzlashma qatlam soʻzlar orasida *v* va *r* harfi bilan boshlanuvchi hamma soʻzlar rus yoki boshqa tillardan oʻzlashgan. Chunonchi, ushbu tilning oʻz soʻzlari jamlangan *kalayda* onlayn lugʻatida bironta ham *v* yoki *r* harfi bilan boshlanuvchi soʻz kuzatilmaydi²⁹. Ushbu holat oʻzbek tili qipchoq lahjasida ham uchraydi va bu jihat oʻz qatlamga doir soʻzlarni aniqlashda sezilarli yordam beradi.

